

ISH HAQI VA PUL TA'MINOTINING NAZARIY ASOSLARI

Jamoliddinov J.B.

Jamoat xavfsizligi universiteti,

“Iqtisodiy fanlar” kafedrası magistri

ANNOTATSIYA:Maqolada ish haqi va pul ta'minoti vazifalarini yoritib o'tilgan. Bunda ish haqi qanday tartibda va qanday usullarda amalga oshirilishi yoritilgan. Pul ta'minoti bulsa harbiy xizmatchilarga xizmat burchlari yuzasidan beriladigan rag'batlantirish sifatida qaralishi va sotsiolog olimlar fikrlari keltirilgan.

Kalit so'zlar:Pul, ish haqi, pulning funksiyasi, pul ta'minoti, harbiy burch, rag'batlantirish, xalqaro mehnat tashkiloti, ish kuchi, mehnat qiymati.


АННОТАЦИЯ:В статье описаны функции заработной платы и денежной массы. Там объясняется, как и какими способами производится заработная плата. Если деньги предусмотрены, то это следует рассматривать как поощрение военнослужащих в связи с выполнением ими служебных обязанностей, и приводятся мнения социологов.

Ключевые слова:деньги, заработная плата, функция денег, денежная масса, военная повинность, стимулы, международная организация труда, рабочая сила, стоимость труда.

ANNOTATION:The article describes the functions of wages and money supply. It explains how and in what ways the salary is made. If money is provided, it should be considered as an incentive given to military personnel in connection with their duties, and the opinions of sociologists are presented.

Key words:Money, wages, function of money, money supply, military duty, incentives, international labor organization, labor force, labor value.

Pul (fors-tojikcha.) — O'rta Osiyo xonliklari va Yaqin Sharqdagi ayrim davlatlarda qo'llanilgan mis chaqa pul. Masalan, 1 pul XVIII -XIX asrlarda Qo'qon xonligida 1/45—1/60 tangaga, Buxoroda 1 pul. 1/40 tillaga, 1932 yilgacha Eronda 1/40 qironga teng bo'lgan. Pul — hamma tovarlar va xizmatlar ayirboshlaganidan, umumiy ekvivalent sifatida foydalanilgan, boshqa barcha tovarlar qiymatini ifodalaydigan maxsus tovar; bozor iqtisodiyotining eng asosiy vositasi. Pul o'z tabitaiga ko'ra, 3 xil xususiyatga ega: hamma narsaga ayirboshlanadigan muhim xarid vositasi; boylik timsoli; mehnatni qiymat shaklida o'lchab beradigan vosita.



1- rasm pulning funksiyalari

Qadimshunos olimlar dastlabki tovar ayirboshlash ibtidoiy jamoa tuzumining tosh asridan boshlanganligini keltirib o'tishgan. Inson o'z mehnati maxsulotlarini ayirboshlashi natijasida savdo-sotiqning dastlabki va sodda ko'rinishini vujudga keltirgan: u tanqis ashyolarni pul o'rnida ayirboshlay boshlagan. Tovar-pul muomalalari turli mintaqalarda turli xil usullarda namoyon bo'lgan. Masalan

Osiyo va Afrikada “kauri” nomli chig‘anoqlar pul vazifasini o‘tagan. Ular ayrim elatlarda ijtimoiy davrdan boshlab milodning XX asrgacha savdo vositasi bo‘lib kelgan va kauri chig‘anoqlari Xitoy, Yaponiya va Hindistonda ancha vaqtgacha muomalada bo‘lgan. Ular milodning VI-VIII asrlarida Germaniyada, XI asrda Shvetsiyada ishlatilganligi, Gveniyada kauri tasviri tushurilgan pullar bo‘lganligi aniqlangan.

Bundan tashqari qoramol, xarsang, it tishi, cho‘chqa dumi, ma‘dan parchasi singari narsalar ham savdo vositasi sifatida qo‘llanilgan.

Odanzod uzi uchun qulay pul shaklini ixtiro etguniga qadar, mazkur “pul”larni tabiatdan olib savdo vositasi sifatida ishlatib turgan. Bunday pullar jamiyat taraqqiyotining ma‘lum bosqichlarida o‘zini oqladi.

Ammo vaqt o‘tishi bilan ular davr talabiga javob bermay qoldi. Tosh asrda ham qabilalar o‘rtasida turli xil ashyolar ayirboshlangan. Qabila va jamoadagi mehnat taqsimoti moddiy va ehtiyoj buyumlarini ayirboshlashning rivojlanishida asosiy omil bo‘lgan. Ana shu tovar ayirboshlash natijasida ma‘lum miqdorda mol ortib qolgan. U boshqa molar narxining ekvivalentiga aylangan. Ana shu asnda birinchi pullar paydo bo‘la boshlagan.

Qadimgi Yunoniston tangalarida ma‘budalar bilan birga muqaddas hayvonlar tasvirlangan. Masalan Afina tangalarida Afina ma‘budasining bosh qismi yoki boyo‘g‘li, Olimpiya tangalarida esa bosh xudo Zevsning bosh qismi tasvirlangan.

XV asrda turli hukmdorlar tomonidan tangalar zarb etilgan davr buldi. Xar bir yirik davlatda vaqt o‘tishi bilan sarroflar, ya‘ni pul almashtiruvchilarning ko‘chalari vujudga keldi. Sarroflar Angliya, Fransiya, Misr va boshqa davlatlarda savdogarlar va badavlat kishilarga boyligini saqlashda katta yordam berar edilar. Davlatning sarroflari o‘rtasida doimiy ravishda aloqa saqlanib, ular bir-biridan xabardor bo‘lib turardilar. Savdogarlar safarga otlanishdan oldin o‘z sarmoyasini sarrofga topshirar, u esa qancha miqdorda pul olgani haqida hujjat yozib berar edi. Savdogarlar o‘zga davlatga borganida u yerdagi sarrofdan kerakli pul miqdorini olish imkoniyatiga ega edi. Zamonamiz banklari (ingliz tilidan kelib chiqqan bo‘lib, “sarrof stoli” degan ma‘noni anglatadi) sarroflar natijasida vujudga kelgan.

Pulning funksiyalaridan biri qiymat o‘lchovi bo‘lib, iqtisodiyotda pul o‘lchov vositasi sifatida xizmat qilganda xisob birligini ta‘minlashi lozim. Og‘irlikni kilogramda yoki masofani metrda o‘lchaganimiz kabi biz tovarlar va xizmatlarning qiymatini pul birliklarida ifodalaymiz.

Xizmatlarning qiymati ya‘ni mehnatga haq to‘lash yoki ish haqi miqdorining eng qadimgi vaqt birligi bu kundir. Soat kashf qilingandan so‘ng ishni bo‘limlarga bo‘lish keng joriy qilindi. Ish miqdorini o‘lchashda ish soati eng ko‘p qo‘llanila boshlandi. Qadimgi Misr O‘rta Qirolligi, Qadimgi Rim va Qadimgi Yunoniston ish haqi to‘langan eng qadimiy davlatlarga xisoblanadi.

Ish haqining qomusiy ta‘rifi mavjud: "Ish haqi -mehnatga pul shaklida to‘lanadigan haq; qiymatning o‘zgargan shakli, ish kuchi resurslari (taqdim etilgan mehnat xizmatining) bahosi" ¹

Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) ish haqiga ta‘rif berib o‘tgan. XMTning 1949 -yildagi "Ish haqini muhofaza qilish to‘g‘risida"gi 95-Konvensiyasida: " Ish haqi atamasi, nomlanishi va hisoblab chiqish usulidan qat‘i nazar, pul shaklidagi hamda bitim yoki milliy qonunchilik tomonidan belgilanadigan har qanday rag‘batlantirish yoki har qanday ish haqi bo‘lib, uni tadbirkor bajarilgan yoki bajarilishi kerak bo‘lgan xizmatlar uchun to‘laydi" ², deb ko‘rsatilgan.

Iqtisodiyot fanida ish haqi mohiyati bo‘yicha ta‘riflar turlicha bo‘lsada, asosan, ular to‘rt ma‘noni anglatadi:

- ish haqi -bu mehnat qiymati;
- ish haqi -bu ish kuchi qiymati;
- ish haqi -bu mehnat bahosi;
- ish haqi -bu ish kuchi bahosi;

Iqtisodiy nazariyaning klassik, yangi klassik va marjinal yo‘nalishlarida o‘zlarining ilmiy tadqiqotlarini olib borgan va ish haqiga bergan ta‘riflarini umumlashtiradigan bo‘lsak ish haqi ish

¹ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 4-tom. –T. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.2002.-B.308

² Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalar.-T:Adolat.2004.-115 b.

beruvchining xodimga ko‘rsatgan xizmati, bajargan ishi uchun to‘laydigan pul mablag‘i, degan tasavvur shakllandi. Ammo ish haqi darajasi, xodim mehnatiga to‘lanadigan haq shakllari nuqsonlari va afzalliklari bo‘yicha amaliyotda va nazariy yakdil qarashlar mavjud emas.

Umuman olganda, ish haqi, bir tomondan, ish kuchi takror hosil qilinishi uchun zarur bo‘lgan hayotiy vositalar fondi, ikkinchi tomondan, foyda keltirishni kafolatlaydigan ish kuchini yollagan ish beruvchining xarajatlari sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli ish haqi bir yo‘la ham yollanma hodim daromadi, ham ish beruvchi xarajati sifatida namoyon bo‘ladi. Bu mehnat bozorida bo‘ladigan tomonlar manfaatlar zidligini anglatadi. (2-rasm)




2 – rasm. Ish beruvchi va yollanma xodim nuqtayi nazaridan ish haqining mohiyati³

Mazkur manfaatlarni tartibga solish uchun ishchi kuchi qiymatini aks ettiradigan ish haqi stavkasi belgilanadi.

Ish haqining ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalari va ularning o‘zgarishi ham muhim masalalardan biridir. Umuman, ish haqining an’anaviy ikkita: takror hosil qiluvchi va rag‘batlantiruvchi funksiyalari ajratilib ko‘rsatiladi. Zamonaviy tadqiqotchilar bozor iqtisodiyoti sharoitlarida ish haqining uchtdan o‘n uchtagacha funksiyalarini belgilashadi.

Ish haqi funksiyalarini tahlil etish orqali ularni turlicha tasniflash mumkin (3-rasm)



3-rasm. Ish haqining funksiyalari

Ish haqi funksiyalari mehnat bozoridagi ish kuchi talabi va uning taklifi bilan bevosita bog‘liqdir. Mehnatga haq to‘lashda juda ko‘p omillarni hisobga olish lozim. Bular qatoriga:


- ish haqi darajasining davlat tomonidan ham ma‘muriy, ham iqtisodiy tartibga solinishi;
- mehnat bozori infratuzilmalari (ish bilan, bandlik xizmatlari, xususiyl rekrtuting agentliklari);
- yirik kompaniyalarning o‘z ish haqi tizimlariga moslashtirilgan ichki mehnat bozorlari;
- tarmoqlarda ish haqi darajasiga jiddiy ta‘sir ko‘rsata oladigan kasaba uyushmalar faoliyatlarini hisobga olish kerak bo‘ladi.

³ Одегов Ю. Г., Руденко Г. Г. Бабинова Л.С. Экономика труда: Учебник. –М.: Альфа пресс. 2007.-С. 548.

Davlat tomonidan ish haqini eng kam ish haqi miqdorini kafolatlash, ayrim toifadagi xodimlarga imtiyozlar berish, soliqlarning ayrim turlari orqali, davlat sektoridagi ish haqi miqdorini bevosita belgilash orqali tartibga solidi.

Ish haqi funksiyalarining ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonidagi roli va ahamiyati bu sohadagi davlatning siyosatiga bog'liqdir.

Xodimning mehnat faoliyatidan kelib chiqib, uning mehnatiga haq to'lash ham turlicha shakllarda namoyon bo'ladi. Mehnatga haq to'lash vaqtbay va ishbay tizimlardan iborat (4-rasm).



4 –rasm. Mehnatga haq to'lash shakllari

Mehnatga ishbay haq to'lash – xodimlar real bajarilgan ishi yoki yetishtirilgan mahsulot birligigato'lanadigan ish haqidan iborat. Ishbay haq to'lashdan odatda me'yor belgilash imkoniyati bo'lgan ishga yoki mahsulotga va uni aniq hisobga olish mumkin bo'lganda keng qo'llaniladi.

Vaqtbay haq to'lash tizimi, odatda, bajarilgan ishi natijalarini normalash yoki bajarilayotgan ish hajmini hisoblab chiqish imkoniyati bo'lmagan hollarda qo'llaniladi. Bu orqali xodimning ish haqi u amalda ishlangan vaqt bo'yicha tariff stavkasiga asoslangan holda hisoblab chiqiladi.

Faoliyatning o'ziga xos xususiyatlariga va muayyan iqtisodiy sharoitlarga qarab mehnatga haq to'lanishini tashkil etish uchun xodimlar mehnatiga haq to'lashning tarifli va (yoki) tarifsiz tizimlari qo'llanilishi mumkin.⁴

Tarif tizimi quyidagi tarkibdan iborat bo'ladi:

- tarif setkasi;
- tarif stavkalari (mansab maoshlari);
- tarif koeffitsiyentlari;
- tarif malaka ma'lumotlari.

Tarif setkasi -ikkinchi, uchinchi va hokazo razryad stavkasiga ega bo'lgan ishchilarning birinchi razryad stavkasiga nisbatini aniqlovchi shkala. Yagona tarif setkasini davlat tomonidan ishlab chiqib, joriy etadi. Unda xodimlar turli toifalari uchun tariff koeffitsiyentlariga muvofiq ish haqlari nisbati aks etadi.

Harbiy xizmatchilar borasida ish haqi masalalariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, ularning harbiy xizmatni o'tash, davlat oldidagi burchlarini va xizmat majburiyatlarini bajarishlari evaziga ish haqi tushunchasini qo'llash noo'rindir. Bunga sabab shundaki, harbiy xizmatning o'ziga xos ma'lum bir mukammal xususiyatlaridan kelib chiqib yondashadigan bo'lsak har bir harbiy xizmatchining harbiy xizmatni o'tash, davlat oldidagi burchlarini va harbiy xizmat majburiyatlarini bajarishi uchun sarflagan vaqti yoki ish hajmi hisobidan kelib chiqib maosh hisoblash mumkin emas. Harbiy xizmatni o'tash turli xil nostandart sharoitlarda kechishi mumkin. Bugungi kunda davlat mudofaasi shuni taqozo etib turibdi. Harbiy xizmatni har qanday nostandart sharoitlarga moslashuvchan qilib tashkillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimidagi xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar ijtimoiy himoyasi hamda harbiy xizmatda bo'lgan davrlari uchun davlat tomonidan barcha ta'minot turlari bilan ta'minlanadilar.

Harbiy xizmatchilar O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti mablag'lari hisobidan oziq-ovqat, pul, kiyim-kechak, uy-joy ta'minoti bilan ta'minlanadilar, O'zbekiston Respublikasi

⁴ O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi. 249-modda. //http:// www.lex.uz

qonunchiligida belgilangan pensiya va tibbiy ta'minot hamda boshqa ijtimoiy kafolat va imtiyozlardan foydalanadilar⁵.

Yuqoridagilardan ko`rinib turibdiki, sanab o`tilgan ta'minot turlari bilan bir qatorda fuqarolik jamiyatidagi fuqarolarga to`lanadigan oylik ish haqidan farqli o`laroq harbiy xizmatchilar harbiy xizmatchilarning pul ta'minoti bilan ta'minlanadilar.

Shu o`rinda "Harbiy xizmatchilar pul ta'minoti" tushunchasiga ta'rif berib o'tshimiz joiz:

Sotsiolog olimlar harbiy xizmatchilarning pul ta'minotini ko'rib chiqishda aniq yondashuvga ega emaslar. T. M. Balandina, A. M. Pixtelev va V. E. Alekseyenko o'z asarlarida pul ta'minotini harbiy xizmatchilarning ijtimoiy tengsizligi ko'rsatkichi sifatida ko'rishadi.

A. D. Belousovning fikricha, harbiy xizmatchilarning pul ta'minoti kasbiy voqelikni oshirish uchun motivatsiya mexanizmiga kiritilgan.⁶

D. G. G. Xolodning fikricha, harbiy xizmatchilarni moddiy ta'minlash ularning kasbiy xizmatlarini moddiy rag'batlantirishdir.⁷

P. Varlakov va K. V. Yatsuk nuqtai nazaridan pul ta'minoti mehnat uchun mukofot sifatida ko'rib chiqiladi.⁸

A.L.Volkovning ilmiy tadqiqotida "Professional harbiy xizmatchilarning moddiy ehtiyojlari, asosan, ularga pul ta'minoti va boshqa natura shaklidagi ta'minot turlarini to'lash orqali qondiriladi, ularning hajmi harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarining turmush darajasi va sifatini belgilaydi va harbiy xizmatchilarning moddiy ahvolini ularning faoliyati natijalari bilan chambarchas bog'laydi" degan.⁹

Kontrakt bo'yicha harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilarga pul ta'minoti ularni moddiy ta'minlash va harbiy xizmat majburiyatlarini bajarishni rag'batlantirishning asosiy vositasi hisoblanadi.¹⁰

Darhaqiqat, harbiy xizmatchilarga pul ta'minotini joriy etishdan asosiy maqsad ularni qo'mondonlik tomonidan yuklangan vazifani yanada professional va sifatli bajarishga rag'batlantirishdir.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi va Markaziy banki boshqaruvining 2016 yil 16 fevraldagi 1, 338-V-sonli qaroriga muvofiq:

"Harbiy xizmatchilarning pul ta'minoti – bu harbiy xizmatni o'tash (xizmat majburiyatlarini bajarish) munosabati bilan qonun hujjatlarida belgilangan normalar va tartib bo'yicha moliyalashtirish manbaalaridan qat'iy nazar (Respublika byudjeti, Moliya vazirligining "Safarbarlik chaqiruvi rezervi mablag'lari" maxsus hisob raqamidagi mablag'lar va qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbaalar), davlat tomonidan to'lanadigan pul to'lovlarining (mukofotlarining) barcha turlari."¹¹

Harbiy xizmatchilarning pul ta'minoti – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va boshqa me'yoriy-huquqiy asoslar bilan belgilangan harbiy xizmatchilar moddiy ta'minotining asosiy turidir.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash to'g'risidagi" PQ-447 sonli qarori. 2019 yil 12 sentyabr. 184-modda. //http://www.lex.uz

⁶ Talabalarining XV xalqaro ilmiy amaliy-amaliy konferensiyasidan materiallar to'plami. Cheboksari "Interactiv Plus" ilmiy hamkorlik markazi 2017 B. 149 -153

⁷ Harbiy mukammallikni rag'batlantirish: muammolar va takomillashtirish yo'llari. M.: "Huquqiy kommunikatsiyalar markazi" 2015. B. 2-23

⁸ Varlakov D.P. Harbiy xizmatchilarning pul nafaqasi. Saratov: "Menejment va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish instituti" / D.P. Varlakov, K.V. Yatsuk, 2018. B. 80-84

⁹ Волков А.Л. «Финансово-экономический механизм обеспечения воспроизводства рабочей силы профессиональных военнослужащих в условиях рынка», 2001г. 222 с.

¹⁰ 2011 yil 7 noyabrdagi 306-FZ-sonli "Harbiy xizmatchilarga pul ta'minotilari va ularga ma'lum to'lovlarni ta'minlash to'g'risida" Federal qonuni, 1 modda.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi va Markaziy banki Boshqaruvining 2016 yil 16 fevraldagi 1, 338-V-sonli qaroriga ILOVA

Ya'ni, harbiy xizmatchilar harbiy xizmatni o'tashi va xizmat majburiyatlarini bajarishi munosabati bilan barcha ta'minot turlari bilan ta'minlanadilar, shu jumladan harbiy xizmatchilarning pul ta'minoti bilan ham.

Harbiy xizmatchilarning pul ta'minoti o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, oylik ish haqidani bir qator farqli jihatlarga ega.

Harbiy xizmatchilarga beriladigan pul ta'minoti - bu davlat tomonidan kafolatlangan harbiy xizmat burchini bajarganlikning miqdori va sifatiga qarab belgilanadigan pul ko'rinishidagi to'lovdir. Harbiy xizmatchilarga va ularning oila a'zolariga pul yordamini to'lash jarayoni tashkiliy prinsiplar, ularning xizmat mavqeiga qarab ishlatiladigan me'yorlar va qoidalarni o'z ichiga oladi.

Ya'ni pul ta'minotini xizmat burchini bajarganligiga qarab to'lash, uning miqdori va sifati, har xil turdagi va qo'shin turlarida harbiy xizmatning o'ziga xos xususiyatlari, harbiy qismlarning joylashtirilgan joylari, harbiy burch, harbiy xizmatga bog'liq ravishda pul ko'rinishidagi imtiyozlarining farqlanishi bilan namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, Harbiy xizmatchilarning pul ta'minoti - bu harbiy xizmatchilarning xizmat va jangovar faoliyatini moddiy rag'batlantirish hisoblanib, uning miqdori harbiy unvoni va egallagan lavozimiga bog'liq. U Qurolli Kuchlar oldida turgan vazifalar, davlatning iqtisodiy imkoniyatlari, har bir harbiy xizmatchining umumiy xizmatga qo'shgan hissasiga qarab maqbul ravishda o'zgarib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash to'g'risidagi" PQ-4447 sonli qarori.2019 yil 12 sentyabr .
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
4. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar.
5. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi va Markaziy banki Boshqaruvining 2016 yil 16 fevraldagi 1, 338-V-sonli qaroriga
6. Одегов Ю. Г., Руденко Г. Г. Бабинова Л.С. Экономика труда: Учебник. –М.: Альфа пресс. 2007
7. Talabalarning XV xalqaro ilmiy amaliy-amaliy konferensiyasidan materiallar to'plami. Cheboksari "Interactiv Plus" ilmiy hamkorlik markazi 2017 .
8. Harbiy mukammallikni rag'batlantirish: muammolar va takomillashtirish yo'llari.M.: "Huquqiy kommunikatsiyalar markazi" 2015.
9. Varlakov D.P. Harbiy xizmatchilarning pul nafaqasi. Saratov: "Menejment va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish instituti" / D.P. Varlakov, K.V. Yatsuk, 2018.
10. Волков А.Л. «Финансово-экономический механизм обеспечения воспроизводства рабочей силы профессиональных военнослужащих в условиях рынка», 2001г. 222 с.
11. 2011 yil 7 noyabrdagi 306-FZ-sonli "Harbiy xizmatchilarga pul ta'minotlari va ularga ma'lum to'lovlarni ta'minlash to'g'risida" Federal qonuni.